TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 3-dekabr | 328-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 7 noyabrdagi 797-10-0-Q/24-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi “Kommunal xizmatlar qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 194–sonli qarori ijrosi yzasidan Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 7 noyabrdagi “2024-2025-yilgi kuz-qish davrida isitish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish hamda ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy soha obyektlarini issiqlik energiyasi bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 797-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlashda “Mahalli davlat hokimiyti to’g’risida” gi qonunning 6- va 26- moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 7 noyabrdagi “2024-2025-yilgi kuz-qish davrida isitish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish hamda ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy soha obyektlarini issiqlik energiyasi bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 797-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Tumandagi markazlashgan issiqlik ta’minotining ishlash tizimini barcha qismlarini tekshirish hamda imkoniyatini aniqlash uchun 2024-yil 8-noyabr soat 10:00 dan boshlab issiqlik manbalaridan chiqadigan issiqlik energiyasini aylanma harakatini ishga tushirilganligi inobatga olinsin.
3. Tuman hokimligi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Bazarbaev) hamda “Issiqlik manbai” ICHB filiali (V.Saidov), barcha ijtimoiy soha rahbarlari 2024-2025-yillar mavsumida ko‘p kvartirali uylarni va ijtimoiy soha obyektlarini belgilangan me’yorlarga ko‘ra issiqligini ta’minlash, yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasi uchun kreditorlik-debitorlik qarzlarni oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgarligi belgilab qo‘yilsin.
4. Tuman Maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limi (N.Ubaydullaeva), Tibbiyot birlashmasi (X.Asadov) barcha ijtimoiy soha rahbarlari bilan birgalikda bir hafta muddatda qo‘shimcha ravishda barcha ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish qozonlari xatlovdan o‘tkazilsin.
5. “Hududgaz Toshkent” GTF filiali (F.Mirzaaxmedov) “Hududiy elektr tarmoqlari” filiali (E.Usmonxo‘jaev), “Toshkent viloyati suv ta’minoti”

AJ filiali (N.Niyazov) uch kun muddatda tuman “Issiqlik manbai” ICHB filiali tomonidan markazlashgan issiqlik energiyasidan foydalanuvchi iste’molchilarga uzluksiz issiqlik energiyasini ta’minlab berish uchun 2024-2025-yilgi isitish mavsumida tabiiy gaz, sovuq suv va elektr energiyasini uzluksiz va yetarli miqdorda yetkazib berish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqqan holda ijrosini ta’minlasin.

6. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Bazarbaev), “Issiqlik manbai” ICHB filiali (V.Saidov) ko‘p qavatli uylardagi issiqlik ta’minoti tizimining barqaror va bir maromda ishlashini ta’minlash uchun aholining issiqlik xizmatidan foydalanish qoidalarga rioya etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorda belgilangan vazifalarning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**